

MARKAZIY OSIYO ISLOM SIVILIZATSIYASINING VATANI

ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ – РОДИНА ИСЛАМСКОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

CENTRAL ASIA – THE HOMELAND OF ISLAMIC CIVILIZATION

Ismoyilova Oynur

*Andijon davlat pedagogika institute ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti milliy g'oya
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 2-kurs talabasi*

ANNOTATSIYA: Markaziy Osiyo hududi Islom sivilizatsiyasining rivojlanishida muhim markaz bo'lgan. Hudud ilm, madaniyat va diniy hayotda katta rol o'ynagan. Markaziy Osiyo geografik va madaniy jihatdan qadimiy sivilizatsiyalarning uchrashgan maskani bo'lib, bu hudud Islom tarixida ham muhim o'rin tutadi. VIII–IX asrlardan boshlab Islom dini Markaziy Osiyo hududiga kirib, mahalliy madaniyat va ilm-fan rivojida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bugungi kunda bu hudud islom sivilizatsiyasining qadimiy markazlaridan biri sifatida tan olinadi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Islom, madaniyat, ilm, tarix, diniy hayot, sivilizatsiya, qadimiy markazlar.

АННОТАЦИЯ: Центральная Азия была ключевым центром развития исламской цивилизации, играя важную роль в науке, культуре и религиозной жизни. Центральная Азия, географически и культурно, была местом встречи древних цивилизаций, и этот регион играл важную роль в истории ислама. С VIII–IX веков ислам проник в Центральную Азию, что привело к значительным изменениям в местной культуре и развитии науки. Сегодня этот регион признан одним из древнейших центров исламской цивилизации.

Ключевые слова: Центральная Азия, ислам, культура, наука, история, религиозная жизнь, цивилизация, древние центры

ANNOTATION: Central Asia has been a key center for the development of Islamic civilization, playing an important role in science, culture, and religious life. Central Asia, geographically and culturally, has been a meeting place of ancient civilizations, and this region has played an important role in the history of Islam. Since the 8th–9th centuries, Islam entered Central Asia, bringing significant changes to local culture and the development of science. Today, this region is recognized as one of the ancient centers of Islamic civilization.

Keywords: *Central Asia, Islam, culture, science, history, religious life, civilization, ancient centers*

Markaziy Osiyo, o'zining boy tarixi, Buyuk Ipak Yo'li chorrahasi bo'lishi va islomning kirib kelishi bilan, o'rta asrlarda islom sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biriga aylangan. Bu hudud ilm, madaniyat, siyosat va iqtisodda katta rol o'ynagan. Bugungi kunda ham Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'rifiy jihatdan dunyo e'tiborida turadi. Islom dini Arab xalifaligi davrida Markaziy Osiyoga kirib kelgan va mintaqa xalqlari hayotining ajralmas qismiga aylangan. Islom dini mahalliy madaniyat va ijtimoiy hayotga chuqur ta'sir ko'rsatib, hududning diniy, siyosiy va ma'naviy tuzilmasini shakllantirgan. Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlar diniy va ilmiy markazlarga aylangan. O'rta asrlarda Markaziy Osiyo ilm-fan, falsafa, astronomiya, tibbiyot va san'atning rivojlangan hududiga aylangan. Hududda ko'plab buyuk olimlar va allomalar yetishib chiqqan, ular orasida Avitsenna (Ibn Sino), Beruniy, Al-Farg'oniy kabi buyuk olimlar bor. Madrasalar, kutubxonalar, masjidlar va minoralar hududni ilmiy va madaniy markazga aylantirgan. Shu bilan birga, adabiyot, she'riyat va falsafiy tafakkur ham rivojlangan.

Markaziy Osiyo Buyuk Ipak Yo'li orqali Yevropa va Sharq o'rtasidagi savdo, madaniy va g'oyalar almashinuvining muhim chorrahasi bo'lgan. Savdo yo'llari nafaqat tovarlar, balki ilm-fan, texnologiya va diniy g'oyalarni ham boshqa hududlarga yetkazishga xizmat qilgan. Bu mintaqa xalqaro iqtisodiy va siyosiy aloqalarning rivojlanishida strategik ahamiyatga ega bo'lgan. Bugungi kunda ham Markaziy Osiyo o'zining geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va boy madaniy merosi bilan dunyo siyosati va iqtisodida muhim o'rin tutadi. Mintaqa islom sivilizatsiyasining davomiyligini ta'minlab, ilmiy va madaniy merosini saqlab kelmoqda. Shunday qilib, Markaziy Osiyo nafaqat islom sivilizatsiyasining vatani, balki uning shakllanishi, rivojlanishi va dunyoga ta'sir ko'rsatishida hal qiluvchi rol o'ynagan mintaqadir. Islomning diniy ta'limoti, Qur'on va hadislarining o'qilishi, ularning amaliyotga tatbiq

etilishi O'rta Osiyo xalqlarining dunyoqarashini o'zgartirdi. Yangi diniy va axloqiy qadriyatlar,

shuningdek, siyosiy boshqaruv tamoyillari mintaqadagi ijtimoiy tizimni tubdan o'zgartirdi.

Masalan, O'rta Osiyo xalqlarining an'anaviy ijtimoiy tuzilmasi islomning ta'siri ostida yangi

shakllarda tashkil etildi. Islomning O'rta Osiyoga kirib kelishi siyosiy tizimga ham katta ta'sir

ko'rsatdi. Arablar bilan o'rnatilgan aloqalar va islomning ta'siri hududda yangi siyosiy tuzilmalar

va hokimiyatlarni shakllantirdi. O'rta Osiyo hududida islomning siyosiy tizimi o'zgarishiga olib

kelgan asosiy voqealar Arab xalifaligi bilan bog'liq bo'lib, bu davrda turli xonliklar va davlatlar

o'rtasida o'zaro siyosiy raqobat ham mavjud edi. Islomning o'ziga xos siyosiy boshqaruv tizimi,

shuningdek, feodalizmga qarshi yangi prinsiplarni joriy etdi. Bundan tashqari, islomning tarqalishi

hududda iqtisodiy o'zgarishlarga ham olib keldi. Savdo yo'llari, ayniqsa, Mo'varounnahr orqali

o'tuvchi savdo yo'llari orqali islom keng yoyildi. Islomning iqtisodiy tizimi, jumladan, zakot

(sadaqa), tijorat va shartnomalar, O'rta Osiyoda yangi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirdi.

Islomning O'rta Osiyoda yoyilishi faqat diniy sohada emas, balki ilm-fan, san'at, adabiyot,

tibbiyot va boshqa sohalarda ham muhim yutuqlarga olib keldi. Markaziy Osiyo hududlarida Islomning 8-asrda tarqalishi, Samargand va Buxoro kabi yirik shaharlarning islom madaniyati markazlariga aylanishi bilan bog'liq bo'lib, 750-yillardan boshlab mintaqada kuchli ta'sir ko'rsata boshlagan.

Xorazm, Mavarannahr va Farg'ona vodiysi kabi mintaqalarda 10-13-asrlar davomida turli islom mazhablari, jumladan Hanafiy mazhabi, keng tarqalib, mintaqada madaniy va siyosiy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Islom olamida Markaziy Osiyoning ahamiyati katta. Qur'ondan keyin eng ishonarli ikkinchi manba sanaladigan sahih hadis to'plamlarining ikkitasi shu mintaqada olimlari - Imom Buxoriy va Imom Termiziy tomonidan yozilgan. Shu bois, deydi tadqiqotchi, Islomning shakllanishida mintaqaning roli katta bo'lgan. Tadqiqotchining yana aytishicha, O'rta Osiyoda hozirgacha mavjud an'anaviy islom ta'limi tizimi temuriylar davrida dunyoga kelgan. "Hozirda qadimchilar deb ataladigan an'anaviy diniy ta'lim tarafdorlari va madrasalar shu davrda bunyod etilgan", - deydi u. XIX asr oxiriga kelib O'rta Osiyo musulmonlari orasida dinni va jamiyatni isloh qilishga chaqiruvchi jadidchilar guruhi paydo bo'ldi. Shu bilan musulmonlar orasida qadimchilar va modernistlar o'rtasida ziddiyat yuzaga keldi. Sovetlar hokimiyati o'rnatilguncha qadimchilarning qo'li baland kelgan, deydi Yemelianova. "Sovetlar hokimiyatga kelgach, ular, avvalo, qadimchilarni yo'q qilishga tushdi. Chunki qadimchilar O'rta Osiyoda

an'anaviy islom namoyandalari edi. An'anaviy ulamolarni chetga surib, jadidchilarni hokimiyatga, mahalliy idoralarga jalb qilishdi. Ularning yordami bilan eski dindorlardan qutulishni niyat qilishdi", - deydi u.

Shuningdek, sovet hokimiyatining ilk yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatni og'irlashtirmaslik uchun mahalliy shariat sudlari va qoziliklarining ishlashiga ruxsat berilgan. Ammo Stalin hokimiyatni egallagach, vaziyat keskin o'zgardi. "Sovetlar barcha dindorlarni, qadimchilarni ham, modernistlarni ham yo'q qila boshladi. Ular madrasalarni, masjidlarni yakson qilishdi. Vaqf mulklarini davlat hisobiga o'tkazdi. Ko'plab ulamolar qatag'on qilindi", - deydi tadqiqotchi. So'nggi yillarda o'tmishda yashab o'tgan ajdodlar ilmiy merosini tadqiq etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bois, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida "Markaziy Osiyoda islom sivilizatsiyasi: o'tmish va hozirgi zamon" mavzusida VI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Mazkur konferensiya O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi hamda Islom tarixi, san'ati va madaniyatini tadqiq etish markazi (IRCICA) bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo'lgan Markaziy Osiyo mintaqasida yashab ijod qilgan, dunyo tamadduni rivojiga bebaho hissa qo'shgan alloma va mutafakirlarning dahosi, ilm-fanning turli yo'nalishlaridagi izlanishlari va qomusiy bilimlarini o'rganish hamda targ'ib qilish maqsadida bo'lib o'tdi.

Onlayn va offlayn formatda tashkil etilgan xalqaro konferensiyaning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakillik organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, din va yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi rektori Muzaffar Kamilov, Fanlar akademiyasi Birinchi vitse-prezidenti – Bosh ilmiy kotibi Shamansur Sagdullayev, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademiklari – Kalandar Abduraxmanov, Saidaxror G'ulomov, Ne'matulla Ibrohimov, Qohira universiteti Sharq tillari kafedrasini professori Jalol Said Hafnaviy, Saudiya Arabistoni Axborot va arab-rus tadqiqotlari markazi raisi, doktor Majid Abdulaziz Turkiy tabrik so'zi bilan ochib berishdi.

Shuningdek, Islom tarixi, san'ati va madaniyatini tadqiq etish markazi (IRCICA) Bosh direktori, professor Mahmud Erol Qilichning tabrigini IRCICA Bosh direktori maslahatchisi, tarix fanlari doktori, professor Ashirbek Mo'minov o'qib eshittirdi.

Tadbirda IRCICA Bosh direktori maslahatchisi, tarix fanlari doktori, professor Ashirbek Mo'minov hamda O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori Ne'matullo Muhamedov moderatorlik qildi.

Anjumanda Din ishlari bo'yicha qo'mita raisining birinchi o'rinbosari Davronbek Maxsudov, O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi o'rinbosari Muhammadolim Muhammadsiddiqov, Islom tarixi, san'ati va madaniyatini tadqiq etish markazi (IRCICA) vakillari – doktor Alidost Ertug'ul, Orxan Cholak, Najat Sayim Xalil, Veysel Bulut, Betul Ayaz, Yekta Zulfiqor, Istanbul universiteti Turkshunoslik instituti o'qituvchisi Ayna Askero'g'lu, Indiana universiteti professori (AQSH) Akram Xabibulla, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori Shovosil Ziyodov, shuningdek, yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, soha mutaxassislari, olimlar hamda talabalar ishtirok etdi.

– Mazkur anjuman O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi bilan amaliy hamkorlikning yangi sahifasini ochishga xizmat qiladi, – deydi Islom tarixi, san'ati va madaniyatini tadqiq etish markazi (IRCICA) Bosh direktori maslahatchisi, tarix fanlari doktori, professor Ashirbek Mo'minov. – An'anaviy tarzda 6 yildan beri o'tkazilayotgan xalqaro konferensiya nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo madaniy merosini o'rganish va ommalashtirish hamda mintaqa xalqlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qilishi shubhasiz. Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Markaziy Osiyoning boy islomiy va ilmiy-merosini chuqur o'rganish, uni zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida tahlil qilish hamda jahon miqyosida targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Anjumanda yurtimiz va xorijiy yetakchi olimlar, ilmiy muassasalar hamda xalqaro tashkilotlar vakillarining ishtiroki ilmiy hamkorlikni mustahkamlash, tajriba almashish va yangi tadqiqot yo'nalishlarini belgilashga xizmat qildi. Konferensiya Markaziy Osiyoning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini yana bir bor namoyon etib, ajdodlar merosini asrab-avaylash, o'rganish va kelajak avlodlarga yetkazish yo'lida muhim ilmiy platforma bo'lib xizmat qilgani bilan ahamiyatlidir. Markaziy Osiyo qadimdan islom sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida shakllanib, jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan hudud hisoblanadi. Bu mintaqada yashab ijod qilgan buyuk allomalar va mutafakkirlar tafakkuri islomiy ilmlar, falsafa, tabiiy fanlar hamda ijtimoiy tafakkur rivojida muhim o'rin tutgan. Bugungi kunda Markaziy Osiyoning islom sivilizatsiyasi vatani sifatidagi tarixiy va ma'naviy ahamiyatini chuqur o'rganish, uni ilmiy asosda tahlil qilish va keng jamoatchilikka yetkazish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Shu ma'noda, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va xalqaro anjumanlar mintaqaning boy ilmiy-merosini tiklash, yosh avlod ongida tarixiy xotira va ma'naviy merosga hurmat tuyg'usini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nodir Karimov, "Islomning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rni va ahamiyati".
2. "O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyas Matbuot xizmati".
3. N. Usmonova, "Markaziy Osiyoda islom sivilizatsiyasi: o'tmishi va hozirgi zamon"